

2023-yil yanvar-noyabr oyi uchun  
dastlabki ma'lumot



## NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(69) 227-84-95



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Namangan viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, viloyatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Namangan viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importini optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-noyabr oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 259,6 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **100,1 mln. AQSH** dollariga yoki **8,6 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1 259,6** **+8,6 %**

(2022- y.: **1 159,5**)



Saldo

2023- y.: - **238,8** (2022 y.: - **62,4**)



### Eksport

2023- y.: **510,4** **-3,3 %**

(2022- y.: **527,7**)



Tovarlar: **502,1**



### Import

2023- y.: **749,2** **+18,6 %**

(2022- y.: **631,8**)



Tovarlar: **749,1**











**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **510,4** mln. AQSH dollariga (**3,3 %** ga kamaydi) va import hajmi **749,2** mln. AQSH dollariga (**18,6 %** ga ko‘paydi). Hisobot davrida **-238,8** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



## NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

<p><b>Rossiya</b></p> <p><b>TSA – 403,0</b></p> <p>Eksport: 297,9 Import: 105,1</p> <p> 32,0 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p><b>TSA – 288,5</b></p> <p>Eksport: 40,0 Import: 248,6</p> <p> 22,9 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p><b>TSA – 90,9</b></p> <p>Eksport: 32,6 Import: 58,2</p> <p> 7,2 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p><b>TSA – 77,5</b></p> <p>Eksport: 17,7 Import: 59,8</p> <p> 6,2 %</p>	<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b></p> <p><b>TSA – 60,7</b></p> <p>Eksport: 39,9 Import: 20,7</p> <p> 4,8 %</p>
<p><b>Germaniya</b></p> <p><b>TSA – 42,0</b></p> <p>Eksport: 8,5 Import: 33,5</p> <p> 3,3 %</p>	<p><b>Belarus</b></p> <p><b>TSA – 36,7</b></p> <p>Eksport: 2,9 Import: 33,8</p> <p> 2,9 %</p>	<p><b>Polsha</b></p> <p><b>TSA – 30,7</b></p> <p>Eksport: 10,9 Import: 19,8</p> <p> 2,4 %</p>	<p><b>Hindiston</b></p> <p><b>TSA – 24,7</b></p> <p>Eksport: 0,3 Import: 24,4</p> <p> 2,0 %</p>	<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p><b>TSA – 23,4</b></p> <p>Eksport: 2,7 Import: 20,6</p> <p> 1,9 %</p>

Namangan viloyati jahonning 81 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (**32,0 %**), XXRda (**22,9 %**), Turkiyada (**6,2 %**), Qozog‘istonda (**7,2 %**), Qirg‘izistonda (**4,8 %**) Germaniya (**3,3 %**) Belarusda (**2,9 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Qozog‘iston, Eron va Ozarbayjon kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Tojikiston va Qozog‘iston bilan **1,4** barobarga oshdi.



## TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT

(2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



Rossiya – 403,0



Qozog‘iston – 90,9



Qirg‘iz Respublikasi – 60,7
















Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg‘oniston, Qirg‘iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	<b>Rossiya</b>	<b>277,6</b>	<b>378,3</b>	<b>403,0</b>
	<i>Eksport</i>	184,1	275,1	297,9
	<i>Import</i>	93,5	103,3	105,1
	<b>XXR</b>	<b>238,3</b>	<b>254,4</b>	<b>288,5</b>
	<i>Eksport</i>	68,9	36,8	40,0
	<i>Import</i>	169,5	217,6	248,6
	<b>Qozog'iston</b>	<b>100,8</b>	<b>97,3</b>	<b>90,9</b>
	<i>Eksport</i>	39,7	36,5	32,6
	<i>Import</i>	61,1	60,8	58,2
	<b>Turkiya</b>	<b>92,9</b>	<b>91,0</b>	<b>77,5</b>
	<i>Eksport</i>	33,0	39,4	17,7
	<i>Import</i>	59,9	51,7	59,8
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>71,3</b>	<b>76,6</b>	<b>60,7</b>
	<i>Eksport</i>	62,7	59,4	39,9
	<i>Import</i>	8,6	17,2	20,7
	<b>Germaniya</b>	<b>15,4</b>	<b>31,9</b>	<b>42,0</b>
	<i>Eksport</i>	2,8	8,7	8,5
	<i>Import</i>	12,7	23,2	33,5
	<b>Belarus</b>	<b>17,6</b>	<b>31,3</b>	<b>36,7</b>
	<i>Eksport</i>	2,0	2,2	2,9
	<i>Import</i>	15,6	29,2	33,8
	<b>Polsha</b>	<b>15,5</b>	<b>21,3</b>	<b>30,7</b>
	<i>Eksport</i>	6,8	9,6	10,9
	<i>Import</i>	8,7	11,6	19,8
	<b>Hindiston</b>	<b>17,1</b>	<b>10,2</b>	<b>24,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	0,6	0,3
	<i>Import</i>	16,4	9,6	24,4
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>11,3</b>	<b>18,6</b>	<b>23,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,3	2,6	2,7
	<i>Import</i>	11,0	16,0	20,6

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Litva	<b>5,2</b>	<b>19,5</b>	<b>17,4</b>
	Eksport	0,7	5,1	1,0
	Import	4,5	14,4	16,4
	Italiya	<b>7,6</b>	<b>5,3</b>	<b>14,9</b>
	Eksport	1,7	1,4	1,1
	Import	5,9	3,9	13,7
	Malaziya	<b>6,2</b>	<b>11,9</b>	<b>14,1</b>
	Eksport	0,0	0,0	0,1
	Import	6,2	11,9	14,0
	Eron	<b>7,5</b>	<b>7,3</b>	<b>13,6</b>
	Eksport	1,6	3,8	5,1
	Import	5,8	3,5	8,5
	Ukraina	<b>15,5</b>	<b>10,4</b>	<b>12,4</b>
	Eksport	9,4	6,2	10,2
	Import	6,1	4,3	2,1
	Tojikiston	<b>5,8</b>	<b>9,4</b>	<b>12,1</b>
	Eksport	4,4	6,2	7,5
	Import	1,4	3,2	4,5
	Fransiya	<b>8,4</b>	<b>8,9</b>	<b>11,6</b>
	Eksport	0,0	0,1	0,2
	Import	8,4	8,8	11,4
	Yaponiya	<b>0,9</b>	<b>3,1</b>	<b>10,3</b>
	Eksport	0,0	0,0	0,0
	Import	0,9	3,1	10,3
	Turkmaniston	<b>9,8</b>	<b>11,7</b>	<b>8,8</b>
	Eksport	3,5	6,1	6,5
	Import	6,3	5,6	2,3
	Maldova	<b>2,0</b>	<b>1,7</b>	<b>5,2</b>
	Eksport	2,0	1,4	4,9
	Import	0,0	0,3	0,3



## NAMANGAN VILOYATIDA TUMANLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-noyabr)\*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1259,7</b>	<b>108,6</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	559,4	127,8	44,4
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	12,4	122,3	1,0
Kosonsoy	93,7	93,6	7,4
Namangan	55,9	90,3	4,4
Norin	69,1	184,6	5,5
Pop	32,6	82,0	2,6
To'raqo'rg'on	172,8	130,9	13,7
Uychi	79,4	98,9	6,3
Uchqo'rg'on	32,8	65,3	2,6
Chortoq	47,0	95,1	3,7
Chust	78,4	77,6	6,2
Yangiqo'rg'on	25,5	43,3	2,0

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Namangan sh. 559,4

To'raqo'rg'on 172,8

Kosonsoy 93,7

Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Mingbuloq 12,4


Yangiqo'rg'on 25,5

Pop 32,6

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **44,4** % ulush bilan **559,4** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mingbuloq tumani **2,0** % ulush bilan **25,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **50,3** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **-2,4** % ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Namangan viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-noyabr oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **16,1** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **49,7** % ni tashkil etdi.



Namangan viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, **633,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **405,8** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **228,0** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## NAMANGAN VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)


<p><b>Rossiya</b> TSA – 403,0 Eksport – 297,9 Import – 105,1</p> 	<p><b>Qozog'iston</b> TSA – 90,9 Eksport – 32,6 Import – 58,2</p> 
<p><b>Qirg'iz Respublikasi</b> TSA – 60,7 Eksport – 39,9 Import – 20,7</p> 	<p><b>Belarus</b> TSA – 36,7 Eksport – 2,9 Import – 33,8</p> 
<p><b>Tojikiston</b> TSA – 12,1 Eksport – 7,5 Import – 4,5</p> 	<p><b>Turkmaniston</b> TSA – 8,8 Eksport – 6,5 Import – 2,3</p> 
<p><b>Ozərbayjon</b> TSA – 3,6 Eksport – 2,9 Import – 0,7</p> 	<p><b>Ukraina</b> TSA – 12,4 Eksport – 10,2 Import – 2,1</p> 
<p><b>Moldova</b> TSA – 5,2 Eksport – 4,9 Import – 0,7</p> 	<p><b>Armaniston</b> TSA – 0,5 Eksport – 0,4 Import – 0,1</p> 




Namangan viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**32,0 %**), Qozog'iston (**7,2 %**) hamda Belarus (**2,9 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## NAMANGAN VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Namangan viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **591,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **373,8** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **218,0** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

## export →


## NAMANGAN VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida **510,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **3,3** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



### XSST\* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr, ulushi % da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o‘rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o‘rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo‘yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## NAMANGAN VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		o'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>527,7</b>	<b>510,4</b>	<b>117,9</b>	<b>96,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Mashinalar va transport uskunalari	9,0	15,7	95,8	174,3	1,7	3,1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,1	3,0	104,6	262,0	0,2	0,6
Ichimliklar va tamaki	1,3	2,8	278,3	209,6	0,3	0,6
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	94,1	80,4	116,9	85,4	17,8	15,7
Sanoat mahsulotlari	282,4	253,4	118,1	89,7	53,5	49,6
Turli xil tayyor mahsulotlar	109,8	124,7	123,0	113,6	20,8	24,4
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	8,1	6,4	67,8	79,5	1,5	1,3
Xizmatlar	9,5	8,3	70,9	88,0	1,8	1,6
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	12,4	5,1	506,5	41,2	2,4	1,0
Boshqalar		10,6				2,1


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **89,8 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**49,6 %**), turli xil tayyor buyumlar (**24,4 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**15,7 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-noyabr oyida MDH mamlakatlariga **405,8** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **76,3** % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, XXR, Polsha va Turkiya kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy Eksportdagi ulushi **87,3** % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr, % da)





## NAMANGAN VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	275,1	297,9	149,4	108,3	1	1
Xitoy	36,8	40,0	53,4	108,6	4	2
Qirg'iziston	59,4	39,9	94,8	67,3	3	3
Qozog'iston	36,5	32,6	91,9	89,4	5	4
Turkiya	39,4	17,7	119,3	45,0	2	5
Polsha	9,6	10,9	142,2	113,2	6	6
Ukraina	6,2	10,2	65,6	166,1	7	7
Germaniya	8,7	8,5	314,4	97,4	10	8
Eron	6,2	7,5	140,4	121,8	13	9
Tojikiston	6,1	6,5	174,1	106,7	9	10
Turkmaniston	3,8	5,1	235,4	133,0	16	11
Moldova Respublikasi	1,4	4,9	70,9	352,9	18	12
Afg'oniston	4,4	3,9	103,3	89,1	15	13
Ozarbajjon	2,1	2,9	276,1	136,2	12	14
Belarus	2,2	2,9	110,3	131,1	11	15
Koreya Respublikasi	2,6	2,7	762,6	105,9	8	16
Quvayt	0,0	2,5	0,0	-	14	17
Isroil	1,6	2,0	242,5	124,5	19	18
BAA	1,4	1,8	579,7	131,0	17	19
Boshqalar	24,1	9,8	123,6	40,7	20	20



## NAMANGAN VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-noyabr)\*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>510,4</b>	<b>96,7</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh	181,5	106,3	35,6
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	1,8	46,5	0,4
Kosonsoy	63,0	118,3	12,3
Namangan	23,0	92,4	4,5
Norin	11,8	240,2	2,3
Pop	14,7	83,8	2,9
To'raqo'rg'on	113,8	118,3	22,3
Uychi	35,4	103,4	6,9
Uchqo'rg'on	24,1	63,0	4,7
Chortoq	1,4	46,0	0,3
Chust	33,4	76,3	6,5
Yangiqo'rg'on	5,9	16,2	1,2

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **35,6 %** bilan **181,5** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Chortoq tumani **0,3 %** bilan **1,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan Namangan viloyati uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.







To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-noyabr oyi yakuni bo'yicha **282,8 mln.** AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **57,3 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **21,2 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (**35,4 %**), tayyor trikotaj kiyimlar (**30,5 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **339** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **41** ta davlatiga eksport qilindi.

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

	2022- yil	2023- yil
 Ip kalava	118,6	-
 Tayyor to'qimachilik mahsulotlari	75,1	100,2
 Gazlamalar	38,8	43,0
 Trikotaj mato	13,2	12,1
 Tayyor trikotaj kiyimlar	66,5	86,2



## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

		2022- yil	2023- yil	o‘shish sur‘ati, % da
	Rossiya Federatsiyasi	224,6	210,5	93,7
	Qozog‘iston	12,8	18,6	145,4
	Qirg‘iziston	32,0	18,2	56,8
	Polsha	9,2	8,8	95,4
	Germaniya	8,6	6,7	77,7
	Maldova Respublikasi	1,3	4,8	359,5
	Ukraina	4,9	3,2	65,2
	Turkmaniston	1,1	1,9	168,8
	Isroil	1,4	1,8	128,2
	Xitoy	16,5	1,7	10,5
	Tojikiston	1,4	1,7	115,3
	Belarus	1,4	1,4	101,0
	Eron	2,4	1,0	42,8
	Ozarbajjon	0,3	0,6	190,5
	Boshqalar	41,1	2,1	5,1



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozorida ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya (**74,4 %** – **210,5** mln. AQSH dollari) va Qozog‘iston (**6,4 %** – **18,6** mln. AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-noyabr oyida import hajmi **749,3** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **118,6** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**30,5** %), sanoat tovarlari (**24,7** %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**17,8** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-noyabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **117,5** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **749,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## NAMANGAN VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>631,8</b>	<b>749,3</b>	<b>117,9</b>	<b>118,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	25,6	16,4	148,9	64,1	4,0	2,2
Mashinalar va transport uskunalari	205,2	228,4	113,3	111,3	32,5	30,5
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	19,7	17,1	149,6	86,9	3,1	2,3
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	99,3	133,5	119,7	134,5	15,7	17,8
Sanoat mahsulotlari	145,9	185,4	112,1	127,0	23,1	24,7
Turli xil tayyor mahsulotlar	17,0	18,1	111,5	106,5	2,7	2,4
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	37,3	39,6	124,6	106,3	5,9	5,3
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	81,9	81,5	126,5	99,6	13,0	10,9
Boshqalar	-	29,2	-	-	-	3,9



2023- yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **30,4 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,4 %** ga kopaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-noyabr oyida Namangan viloyati **81** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya, Belarus va Polsha) jami importning **2/3** qismini tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr, % da)





## NAMANGAN VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Xitoy	217,6	248,6	128,4	114,2	1	1
Rossiya Federatsiyasi	103,3	105,1	110,4	101,7	2	2
Turkiya	51,7	59,8	86,3	115,8	4	3
Qozog'iston	60,8	58,2	99,5	95,8	3	4
Belarus	29,2	33,8	187,4	116,1	6	5
Germaniya	23,2	33,5	182,9	144,5	5	6
Hindiston	9,6	24,4	58,4	254,6	7	7
Qirg'iziston	17,2	20,7	200,7	120,3	11	8
Koreya Respublikasi	16,0	20,6	146,0	128,9	10	9
Polsha	11,6	19,8	133,6	170,3	12	10
Litva	14,4	16,4	320,8	114,0	13	11
Malayziya	11,9	14,0	191,4	118,0	16	12
Italiya	3,9	13,7	66,9	348,7	9	13
Fransiya	8,8	11,4	105,0	129,7	8	14
Yaponiya	3,1	10,3	333,1	335,2	14	15
Eron	3,5	8,5	59,9	243,4	20	16
Tojikiston	3,2	4,5	228,2	141,6	15	17
Latviya	3,7	4,1	96,1	112,9	19	18
Shveysariya	4,8	3,8	152,9	79,6	18	19
Avstriya	1,0	3,5	48,0	347,6	17	20




## NAMANGAN VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-noyabr)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>749,3</b>	<b>118,6</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh	377,9	141,6	50,4
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	10,6	170,7	1,4
Kosonsoy	30,6	65,4	4,1
Namangan	32,9	89,0	4,4
Norin	57,3	176,2	7,6
Pop	18,0	80,6	2,4
To'raqo'rg'on	59,0	164,5	7,9
Uychi	44,0	95,7	5,9
Uchqo'rg'on	8,7	72,9	1,2
Chortoq	45,6	98,3	6,1
Chust	45,0	78,6	6,0
Yangiqo'rg'on	19,6	86,8	2,6

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSH dollari



**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **50,4 %** bilan **377,9** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchqo'rg'on tumani **1,2 %** bilan **8,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-noyabr oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **228,4** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **11,3** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **30,5** % ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr)




2023- yil yanvar-noyabr oyida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,2** mln. AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Namangan viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **118,4** mln. AQSH dollari, Turkiya — **25,5** mln. AQSH dollari Germaniya — **19,9** mln. AQSH dollari, Italiya – **9,8** mln. AQSH dollari, Koreya **9,9** mln. kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023 - yil yanvar-noyabr oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **185,4** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **27,0** % ga kopaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **24,7** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

77,8 mln. AQSH doll.  
ulushi – 42,0 %



XXR

46,5 mln. AQSH doll.  
ulushi – 25,1 %



Rossiya

14,5 mln. AQSH doll.  
ulushi – 7,8 %



Turkiya

14,2 mln. AQSH doll.  
ulushi – 7,7 %



Qozog'iston

11,0 mln. AQSH doll.  
ulushi – 5,9 %



Germaniya



Sanoat mahsulotlari importida beshta yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya) jami importning 88,5 % ini tashkil qiladi, bu 164,0 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.